



ANGILYA

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi 6-T-S-20 guruh talabalari

*Abdullayev Husan
Shamardonov Azamat*

Annotatsiya: ushbu maqolada biz Angilya tarixini uning rivojlanishini va yuzbergan tarixiy o'zgarishlarini sarxisob qilamiz. Bu orqali biz Angilya tarixiga ko'proq va chuqurroq nazar tashlaymiz.

Kalit so'zlar: Angilya, Aholisi, davlat boshqaruvi, oliy kengash, tarix, rivojlanish, iqtisod, ijtimoiy hayot

19-asrning 30-yillarida ishlab chiqarishning fabrika tizimi qaror topdi. 30—40-yillarda siyosiy jihatdan shakllangan ishchilar harakati — chartizm keng avj oldi. Birlashgan Qirollik hukumatining tashqi siyosati ingliz burjuaziyasining savdo-sanoat sohasidagi ustunligini mustahkamlash, mustamlakalarni ko'paytirishga qaratildi. Birlashgan Qirollik Yangi Zelandiya, Birma, Janubiy Amerikadagi poyonsiz hududlarni bosib oldi, 19-asrning birinchi yarmiga kelib, Hindistonni zabt etishni tugalladi, Xitoy (1840-42, 1856-60) hamda Afg'onistonga qarshi (1838—42, 1878—80) bosqinchilik urushlari olib bordi, Hindiston (1857—60), Irlandiya (1848—67 va boshqalar), Yamayka o.dagi (1832) milliy ozodlik qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Xitoydagi Taypin qo'zg'olonini (1851—64) bostirishda ishtirok etdi. Qrim urushi tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. 1878-yil Kipr o.ni, 1882-yil Misr, 1898-yil Sharqiy Sudanni, 1899—1902-yillarda Janubiy Afrikadagi bir qancha hududlarni zabt etdi. 20-asr boshlariga kelib Birlashgan Qirollik iqtisodiy jihatdan AQSH va Olmoniyadan orqada qola boshladi. Birlashgan Qirollik bilan Olmoniya o'rtasidagi ziddiyat Birinchi jahon urushini keltirib chiqardi. Urush oqibatida g'olib mamlakatlar qatori Olmoniyaning Osiyo va Afrikadagi mustamlakalarini tortib olish hisobiga o'z mustamlakalarini kengaytirishga erishdi. 20-yillarda Birlashgan Qirollik Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirishda qatnashdi. 1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Birlashgan Qirollik iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. 1938-yil Birlashgan Qirollik hukumati Myunxen shartnomasiga qo'shilib, Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga yo'l ochdi. 1939-yil 3-sentabrda Birlashgan Qirollik Olmoniyaga urush e'lon qildi. Urush Birlashgan Qirollikning iqtisodiy va siyosiy mavqeini ancha pasaytirdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng



Birlashgan Qirollik mustamlakachilik imperiyasi tushkunlikka yuz tutdi. 1970-yillarning o'rtalarida Birlashgan Qirollikning deyarli barcha mustamlakalari mustaqillikka erishdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Birlashgan Qirollik hukumatini navbatmanavbat leyboristlar (1945—51, 1964—70, 1974—1979) va konservatorlar (1951-64, 1970-74 va 1979-yildan) partiyasi boshqardi. Birlashgan Qirollik 1945 ydan BMT a'zosi. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatiya munosabatlarini 1992-yil 18-fevralda o'rnatgan. Milliy bayrami — Qirolicha tug'ilgan kun (iyun oyining ikkinchi yoki uchinchi shanbasi).

Asosiy Partiyalari:

Leyboristlar partiyasi, 1900-yil tuzilgan; Konservatorlar partiyasi, 1867-yil tashkil topgan; Liberal demokratlar partiyasi, 1988-yilda asos solingan; Uels millatchi partiyasi, 1925-yilda tuzilgan; Shotlandiya milliy partiyasi, 1928-yilda tashkil etilgan; Britaniya Kommunistax partiyasi, 1988-yilda B.B. Kommunistik partiyasining sobiq a'zolari tomonidan tuzilgan; So'1 demokratlar partiyasi, 1920-yil tashkil etilgan.

Eng yirik kasaba uyushma birlashmasi — Britaniya tredyunionlar kongressi, 1868-yil tuzilgan; Shotlandiya tredyunionlar kongressi, 1897-yil tuzilgan; Tredyunionlar umumiy federatsiyasi, 1899-yil tuzilgan; Uels tredyunionlar kongressi, 1973-yil tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuk Britaniya: hukumatning sanoat strategiyasi // Iqtisodchi. - 2004 yil, № 10 b. 17 dan 34 gacha.
2. Voronin V.P. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti. - M.: Yurait-nashriyot 2003 yil.
3. Elova M.V. va boshqalar Jahon iqtisodiyoti: tashqi iqtisodiy faoliyatga kirish / ostida. Ed A.K. Shurkalina, N.S. Tsypinoy. - M.: Logos 2000.
4. Kolesov V.P. Jahon iqtisodiyoti. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. - M.: MPSI 2001 yil.
5. Kolesov V.P. Osmova M.N. Jahon iqtisodiyoti. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. - M.: MPSI FLINT 2000.
6. Konotopov M.V. Smetanin S.I. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining tarixi. - M.: Paleotip 2004 yil.